

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining Xaridlar siyosati
(“O‘zbektelekom” AK xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-
taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom)ga
kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. 4-bandning o‘n sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari – elektron do‘kon, kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, ikki bosqichli davlat xaridlari, taklif so‘rovi, to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan xaridlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari;”.

2. 13-bandning yettinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

3. 47-bandning beshinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

4. 57-bandning o‘ttiz oltinchi hamda ellik uchinchi xatboshilaridagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi” so‘zlari “Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi huzuridagi “Loyihalar va xaridlar samaradorligini oshirish markazi” DM” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. 57-band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili. Summasi bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridan oshmasligi va bir moliya yilida bir budjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda, g‘olib davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial

yetkazib beruvchilaridan narxlarni so‘rash yo‘li bilan davlat buyurtmachisi tomonidan aniqlanadi.

Kompaniya kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish asoslarini, shuningdek, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlar to‘g‘risidagi axborotni ular tuzilgan kundan e‘tiboran besh ish kunidan kechiktirmay maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha shartnoma davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining taklifida ko‘rsatilgan shartlar asosida hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narx bo‘yicha tuziladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari. Ikki bosqichli davlat xaridlari quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki texnik, ekspluatatsiya qilinishi xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Davlat xaridini ikki bosqichli davlat xaridlarini o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a‘zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Ikki bosqichli davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot Kompaniya tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek, Kompaniyaning rasmiy veb-saytiga yoki ommaviy axborot vositalariga xaridlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lonni va xarid bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma‘lum qilinadi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon faqat xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon va xarid qilish hujjatlari Kompaniya tomonidan har bir bosqich bo‘yicha takliflarni qabul qilish

muddati tugaydigan sanadan kamida yigirma ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek, Kompaniyaning rasmiy veb-saytiga yoki ommaviy axborot vositalariga joylashtiriladi.

Birinchi bosqichda ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) eng kam texnik xususiyatlarini aks ettiruvchi dastlabki o'z texnik takliflarini taqdim etadi.

Texnik talablar Kompaniyaning ehtiyojlaridan, xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) mo'ljallanilgan maqsadi va funksiyalaridan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak.

Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan takliflar ikki bosqichli davlat xaridlarining xarid qilish hujjatlariga va xarid qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazish chog'ida ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Birinchi bosqichda takliflarni taqdim etish muddati tugagach, Kompaniya takliflarni ko'rib chiqadi va baholaydi. Bunda, xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan texnik parametrlarga asosan texnik va ekspluatatsiya qilinishi xususiyatlari bo'yicha eng maqbul takliflarni taqdim etgan ishtirokchilar birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi.

Davlat xaridlarining ikkinchi bosqichi birinchi bosqichdan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqichni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida Kompaniya kelib tushgan dastlabki takliflarga muvofiq o'zining dastlabki talablarini qayta ko'rib chiqadi va takomillashtiradi, bunda, davlat xaridi predmetini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ikki bosqichli davlat xaridlarining ikkinchi bosqichida Kompaniya tomonidan o'zgartirish kiritilgan xarid qilish hujjatlari birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilarga yigirma ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda yuboriladi va ularga o'z uzil-kesil takliflarini taqdim etish orqali xaridda ishtirok etish taklif qilinadi.

Takliflar turli darajadagi texnik afzalliklardan, iqtisodiy barqarorlik jihatlaridan, shu jumladan hayotiy davrning qiymatidan kelib chiqqan holda baholanadi. Yakuniy baholash xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda Kompaniya tomonidan amalga oshiriladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati har bir bosqich bo‘yicha takliflar berish tugagan paytdan e‘tiboran yigirma ish kunidan oshishi mumkin emas.

Takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ikki bosqichli davlat xaridlari, agar ikkinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa, o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.

Ikki bosqichli davlat xaridlarining natijalari bo‘yicha shartnoma tuziladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlarining natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi axborot Kompaniya tomonidan maxsus axborot portaliga ular tuzilgan sanadan e‘tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

Taklif so‘rovi tartib-taomili. Kompaniya xaridlarida ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning “taklif so‘rovi” tartib-taomili qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmonining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) Kompaniya tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi mumkin.

Kompaniya tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish ushbu Nizomning 10-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi”.

6. 57-bandning ellik yettinchi xatboshisidagi, 113-bandning ikkinchi xatboshisidagi hamda 117-bandning yettinchi xatboshisidagi “Yuridik boshqarma” hamda “Yuridik boshqarmasiga” so‘zlari tegishincha “Yuridik departament” hamda “Yuridik departamentiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Nizomning 1-ilovasi 5-bandidagi “Yuridik boshqarma boshlig‘i” so‘zlari “Yuridik departament direktori” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. 57-bandning ellik yettinchi xatboshisidagi, 113-bandning ikkinchi xatboshisidagi, 129-banddagi hamda 130-banddagi “Komplayens boshqarmasi”, “Komplayens xizmati” hamda “Komplayens boshqarmasiga” so‘zlari tegishincha “Komplaens departamenti” hamda “Komplaens departamentiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. Nizomning 1-ilovasi 5-bandidagi “Komplaens boshqarmasi boshlig‘i” so‘zlari “Komplaens departamenti direktori” so‘zlari bilan almashtirilsin.

10. Nizom quyidagi mazmundagi 10-ilova bilan to‘ldirilsin:

Kompaniya tomonidan taklif so‘rovi orqali xaridlarni amalga oshirish sxemasi

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Kompaniya	Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxlari bo‘yicha elektron ma‘lumotnomani shakllantiradi.	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Kompaniya	1. “Taklif so‘rovi”ni o‘tkazish haqidagi e‘lonni davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtiradi. 2. O‘z ixtiyoriga ko‘ra, salohiyatli yetkazib beruvchilarga o‘z takliflarini taqdim etish uchun “taklif so‘rovlari”ni yuboradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida ikki ish kuni oldin
3-bosqich	Ishtirokchi	“Taklif so‘rovi”ni o‘tkazish haqidagi e‘lon bo‘yicha takliflarni taqdim etadi.	“Taklif so‘rovi”ni o‘tkazish haqidagi e‘londa belgilangan muddatga qadar
4-bosqich	Kompaniya	1. “Taklif so‘rovi”ni o‘tkazish haqidagi e‘lon bo‘yicha kelib tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi (agar kelib tushgan bo‘lsa). 2. Salohiyatli yetkazib beruvchilarning takliflarini va (yoki) ofertalarini o‘rganadi.	G‘olib aniqlangunga qadar
5-bosqich	Kompaniya	Takliflarni va (yoki) oferta(lar)ni ko‘rib chiqish (o‘rganish) natijalari bo‘yicha eng maqbul taklif taqdim etgan ishtirokchini g‘olib deb topadi va ushbu haqda Davlat xaridlari elektron tizimiga axborot joylashtiradi. Bunda, bitta taklif yoki oferta kelib tushgan bo‘lsa ham xarid qilish tartib-taomili bo‘lib o‘tgan hisoblanadi.	E‘lon bo‘yicha takliflarni qabul qilish muddati tugagan paytdan e‘tiboran yigirma ish kuni ichida
6-bosqich	Kompaniya	G‘olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi (xorijiy yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno).	G‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab o‘n ish kunida
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	G‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab, davlat buyurtmachisi to‘qqiz ish kuni ichida shartnoma tuzish bo‘yicha g‘olibga taklif yubormasa, ushbu jarayon Davlat xaridlari elektron tizimi tomonidan avtomat tarzda amalga oshiriladi va g‘olib bir ish kuni ichida shartnoma tuzish yoki uni rad etish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bunda, g‘olib shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni bir ish kuni ichida rad etmagan bo‘lsa, shartnoma avtomatik rejimda tuzilgan deb hisoblanadi.	G‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab o‘n birinchi ish kunida

8-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga kiritadi.	Avtomatik ravishda
------------------	---	--	--------------------

”.